

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA INKLYUZIF TA'LIMNI JORIY ETISHDA .MONTESSORIY METODIKASINING AHAMIYATI

Denov Tadbirkorlik Pedagogika

Instituti Pedagogika fakulteti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi

1mt 23 guruh talabasi.

Madaminova Lobar Bahodir qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni joriy etishda Montessori metodikasining ahamiyati tahlil qilinadi. Inklyuziv ta'limning mazmuni, maqsadi va uning bolalarning individual rivojlanishidagi roli yoritiladi. Shuningdek, Montessori metodikasining asosiy tamoyillari — shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, mustaqil faoliyatni qo'llab-quvvatlash, sensor materiallardan foydalanish va moslashtirilgan muhit yaratish — inklyuziv guruhlar uchun samarali pedagogik yechim sifatida ko'rib chiqiladi.

Аннотация: В статье анализируется значение методики Монтессори при реализации инклюзивного образования в системе дошкольного образования. Раскрываются содержание, цели инклюзивного образования и его роль в индивидуальном развитии детей. Также рассматриваются основные принципы методики Монтессори: личностно-ориентированное обучение, поддержка самостоятельной деятельности, использование сенсорных материалов и создание адаптированной среды, – как эффективные педагогические решения для инклюзивных групп.

Abstract: This article analyzes the importance of the Montessori methodology in implementing inclusive education in the preschool education system. The content, purpose of inclusive education and its role in the individual development of children are highlighted. Also, the main principles of the Montessori methodology - person-centered education, support for independent activity, the use of sensory materials and

the creation of an adapted environment - are considered as effective pedagogical solutions for inclusive groups

Kalit so'zlar: *inklyuziv ta'lim, maktabgacha ta'lim, Montessori metodikasi, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, sensor materiallar, individual rivojlanish, moslashtirilgan muhit, ijtimoiy integratsiya, maxsus pedagogika,*

Inklyuziv ta'lim maktabgacha ta'lim tizimida barcha bolalarning teng imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik yondashuvdir. Bu jarayonda ehtiyojlari turlicha bo'lgan bolalarning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy moslashuvini kuchaytirish va individual o'sishini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan Montessori metodikasi inklyuziv ta'limni samarali joriy etishda eng mos pedagogik tizimlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakatimizning iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish jarayonida keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ta'lim tizimi va mazmunini demokratizatsiyalash davlatimizning ustivor siyosati XXI - asr yoshlarini har tomonlama rivojlangan, yetuk, dunyoviy fikr yuritadigan, bilimli barkamol shaxs qilib voyaga yetkazishdan iborat. Mariya Montessori italiyalik shifokor va pedagog bo'lib, o'z nomini ko'targan bepul ta'lim g'oyasiga asoslangan o'ziga xos pedagogik tizimi bilan mashhur. Uning pedagogik tizimi hali ham dunyoning ko'plab davlat va xususiy maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlaridalarida qo'llaniladi, Xalqaro Montessori assotsiatsiyasi faoliyat ko'rsatadi. Montessori ko'plab yutuqlaridan biri yosh bolalarni o'qitish usullari aytib o'tilgan, "Montessori usuli" sifatida dunyo miqyosida e'tirofga sazovor bo'ldi. Bu usul bolaning o'z tashabbusi va tabiiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, asosan amaliy o'yinlar orqali ta'kidlaydi. Maxsus ta'lim sohasini rivojlanishini qayta ko'rib chiqish siyosati amalga oshirila boshladi. M. Montessori o'zining pedagogik tizimini didaktik jihatdan tayyorlangan muhitda bolaning o'zini o'zi rivojlantirish tizimi deb atagan. Kattalar bilan yaqin joyda o'tadigan bolaning hayot yo'lini o'rganish, uning ta'lim usullari va tamoyillariga aralashish emas, balki u pedagogik antropologiyaning asosini o'rganish edi. M. Montessori har qanday amaliy harakatlar, nazariyalar va modellar

faqat rivojlanayotgan shaxs haqidagi fundamental bilimlarga asoslanishi mumkin deb hisoblardi. Bolalarning holati va xulq-atvorini ilmiy kuzatishlar unga “diqqatning qutblanish hodisasi” ni aniqlashga yordam berdi, shundan aslida u bolaning erkin o'zini o'zi rivojlantirishi va uning ishini maxsus maktabda tashkil etish usullari to'g'risida xulosa chiqaradi. Mariya Montessorining muhim asarlaridan biri "Bolalar boshqacha" deb nomlangan umumta'lim tizimida imkoniyati cheklangan bolalarning integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lim tizimida iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi, ilg'or xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq sifatli ta'lim olish uchun teng imkoniyatlarni yaratish; O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi, “O'zbekiston Respublikasida nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida”gi qonunlarda teng imkoniyatlarni ta'minlash, ta'lim olish uchun qulayliklarga ega bo'lish, tevarak atrofdagilarning ijobiy munosabatini shakllantirish, sog'lig'ida imkoniyatlari cheklangan shaxslarning umumta'lim muhiti yaratib berish kerakligini aytib o'tgan.

Montessori metodikasi bolaning tabiiy rivojlanish jarayoniga tayanadi va har bir bolaning individual sur'atda o'sishini rag'batlantiradi.

Xulosa qilib aytganda ushbu metodikaning asosiy tamoyillari – mustaqil faoliyat, sensor materiallardan foydalanish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, erkin tanlov va tartibga asoslangan muhit – inklyuziv ta'limning maqsadlari bilan uyg'unlashadi. Ayniqsa, rivojlanishida muayyan cheklovlari bo'lgan bolalar uchun maxsus tayyorlangan didaktik materiallar va moslashtirilgan o'quv muhiti ularning bilish faoliyatini qo'llab-quvvatlashga yordam beradi. Montessori metodikasi maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish uchun qulay ilmiy-metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Uning shaxsga yo'naltirilgan, moslashuvchan va rivojlantiruvchi yondashuvi barcha bolalar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash, shuningdek ularning har tomonlama barkamol rivojlanishiga ko'maklashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING "NOGIRONLIGI BO'LGAN BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISH TIZIMINI YANA-DA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA"GI QARORI.
2. O'zbekistonda inklyuziv (integratsiyalashgan) ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi.
- 3.XTV 234-sonli buyrug'I - "Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun inklyuziv ta'lim to'g'risida muvaqqat Nizom"-2005 yil 19 sentyabr
- 4.Aloxida yordamga muxtoj bolalarni ma'naviy va estetik rivojlantirish" mavzusidagi ilmiy - nazariy konferentsiya materiallari. Toshkent-"Uzinkomtsentr"-2002 yil

